

IJTIMOIY ADOLATLI JAMIYAT YARATISHDA YOSHLARNING O'RNI

BuxDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li

BuxDPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

IMIG '22 guruhi talabasi Aqlbekova Farangiz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarning davlat taraqqiyoti va siyosatiga munosabatini yo'lga qo'yishda ijtimoiy adolat mezonlarining axloqiy, barqaror va ilmiy asoslangan bilimlarni mustahkam bo'lishi va bu bilimlarni shakllantirishda qo'llaniladigan metodlar manbalar asosida izchil tahlil qilingan.

**Kalit so'z:** Ijtimoiy, global, actus, activus, demokratiya, adolat, partiya, fraksiya, konsepsiya, konvensiya, yoshlar qanoti, ijtimoiy ong, huquqiy ong.

**Abstract:** In this article, the ethical, stable and scientifically based knowledge of the criteria of social justice in establishing the attitude of young people to the state development and policy and the methods used in the formation of this knowledge are consistently analyzed based on the sources.

**Key word:** Social, global, actus, activus, democracy, justice, party, faction, concept, convention, youth wing, social consciousness, legal consciousness.

**Аннотация:** В данной статье на основе источников последовательно анализируются этические, устойчивые и научно обоснованные знания о критериях социальной справедливости и методы, используемые при формировании этих знаний.

**Ключевые слова:** Социальный, глобальный, actus, activus, демократия, справедливость, партия, фракция, концепция, конвенция, молодежное крыло, общественное сознание, правосознание.

Ijtimoiy adolat – shunchaki axloqiy talab emas, balki milliy barqarorlik va global farovonlik asosidir. Ijtimoiy adolatli jamiyat – teng imkoniyatlar, qadiriyatlar va urfatodatlar, davlatlar va xalqlarning ishlab chiqarish salohiyati har tomonlama hamjihatlikka asoslangan hamda insonlarning haq-huquqlari kafolatlangan va hurmat qilish mezonlari yuqoro shakillangan jamiyat. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat bu uning faolligidir. Faollik (lotincha —actus - harakat, —activus - faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Faollik kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg'ulari va hatti-harakatlarini jamlashga jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy

voqelikning tegishli tomonlarini o‘zgartirishga ta‘sir ko‘rsatadi. Sayyoramiz ko‘lamida nizo va mojarolarning ko‘pligiga qaramay, ijtimoiy adolatni ta’minlash hamda “yashil” va raqamli iqtisodiyot, yoshlar huquqlari kabi dolzarb masalalarga alohida e’tibor bergen holda, munosib ish o‘rinlari yaratish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Insoniyat duch kelib turgan ijtimoiy adolat bilan bog‘liq qaltis ahvol esa bu borada beg‘am va befarq bo‘lmaslikni taqozo etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev asarlarida bayon qilingan ijtimoiy faol va raqobatbardosh, tashabbuskor kadrlar tayyorlashga oid nazariy g‘oyalar, sharq mutafakkirlarining barkamol inson tarbiyasiga oid qarashlari, shuningdek, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, davlatimiz rahbari ijtimoiy ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusi asosida ma‘naviy jihatdan shakllantirish ularga kasbiy bilimlar berish o‘qituvchi kasbiga tegishli malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish jarayoni bilan uzviylikda olib borildi. Yurtimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq O‘zbekistonda yoshlar siyosatiga alohida e’tibor qaratilib, 1991 yil 20 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishiva uning 2016 yil 14 sentyabrda yangi tahrirda tasdiqlanishi mamlakatimizda yoshlar siyosatiga bo‘lgan e’tibor va g‘amxo‘rlikni yangicha bosqichga ko‘tarishi bilan muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 5 iyulda «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni va 2017 yil 18 iyulda «O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son “O‘zbekiston Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” qarori qabul qilindi. Ushbu meyoriy hujjatlarda yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yosh olimlarning jahon ilmiy maydonida raqobatbardoshlilagini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, yoshlarning intellektual mulk ob‘ektlarini respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlariga joriy etish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar huzurida yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi “Yoshlar qanoti” tashkil etilgan. Bulardan ko‘zlangan asosiy maqsad – mamlakatning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olishida yoshlarning faol ishtirokini ta’minalash, yoshlarning ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish, ularda jamiyatimiz taraqqiyotiga to’siq bo‘layotgan turli xil g‘oyaviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an‘analarimizni e’zozlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlarni faol ishtirok etishga chaqirish, barcha bo‘g‘inlardagi partiya organlariga saylanish, hokimiyat vakillik organlariga nomzodini ko‘rsatish, partiya yig‘ilishlarida

muhokama kilinayotgan masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirish, takliflar kiritish, dasturiy maqsadlarni hayotga tatbiq etish jarayonlarida bevosita yoshlarning faol ishtirok etishini ta'minlashga intilish, yoshlar orasida yaratuvchanlik g'oyalarini ilgari surishi hamda ularni hayotga tatbiq etish yuzasidan amaliy taklif va mulohazalar ishlab chiqish kabilardan iborat. Yoshlar orasida huquqiy savodxonlikning pastligi nafaqat, ularning o'zлari uchun, balki jamiyat va davlat uchun ham zararlidir. Huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi yoshlarning o'z huquqlaridan to'laqonli foydalana olmasliklariga, majburiyatlaridan bexabar qolishlariga sabab bo'ladi. Majburiyatlardan bexabarlik yoki harakatlarining huquqiy oqibatini angomaslik bugungi kunda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Biz huquqiy-demokratik davlat qurishni oldimizga maqsad qilgan ekanmiz, buning uchun huquqiy ongi va madaniyati yuksak yoshlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunga esa huquqiy savodxonlikni oshiribgina erishishimiz mumkin. Qisqasini aytganda, "Faqat chuqr o'ylangan va tezkor davlat siyosatigina yoshlarning huquqiy madaniyatini ko'tara oladi va ularning huquqiy ongi darajasini yuksaltirishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi , 2018
2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. Toshkent : "O'zbekiston" .2018.
3. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. O'zbekiston.2018.4. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston. 2017.
4. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston. 2017.4. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.
5. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi – Toshkent : Ma'naviyat , 2017
6. R.E.Xoliqova "O'zbekistonning eng yangi tarixi" – Toshkent -2021
7. L.Xolnazarova , S.Maxammadiyeva , M.Inatov "O'zbekistonning eng yangi tarixi" –Toshkent -2021
8. <https://lex.uz>
9. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426147>
10. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426141>
11. <http://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1365>
12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678098>
13. <http://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1300>
14. Tom 2 № 2 (2022): Maqola va tezislар 2022 (buxdupi.uz)